

“Shoh va shoir Bobur bo’stoni, Navolarning ezgu ummoni”

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bag’ishlangan

“Shoh va shoir Bobur bo’stoni,
Navolarning ezgu ummoni”

deb nomlangan ma’naviy-ma’rifiy, adabiy-badiiy kecha tashkil etildi.

Tadbirda O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir Rustam Mirvohid so’zga chiqib Bobur hayoti va ijodi, uning milliy adabiyotimiz va madaniyatimizdagi ahamiyati, uning hayoti va ijodini o’rganish zarurati haqida batafsil ma’lumot berdi.

Ta’kidlanganidek, “Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, ayniqsa, «Boburnoma» asari yoshlari tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Uning asarlari orqali yoshlari o’z xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlari haqida bilimlar oladi. Boburning jasorati, qat’iyati, vatanparvarligi, ilmga intilishi yoshlarda o’ziga xos ideal obrazni shakllantiradi”.

Tadbirda institut professor-o’qituvchilari hamda talaba-yoshlari tomonidan “Ra’no kibi”, “Qaro zulfing”, “Oromijon”, “Guljamol”, “Lola”, “Rost maqomidan soqinomai savti kalon” kabi Bobur g’azallari kuyga solinib ijro etildi. Shuningdek, uning ruboiylari va g ’azallaridan namunalar ham o’qildi.

“Qo’g’irchoq teatri san’ati” kafedrasasi o’qituvchisi Ulug’bek Musinov Mirzo Bobur siyemosida namoyon bo’ldi. Musiqalar esa professor Ahmadjon Dadayev rahbarligidagi “Sayqal” ansabli

tomonidan mahorat bilan ijro etildi. Konsert dasturi ssenariysi dotsent Isoqtoy Jumanovga tegishli bo'lsa, dotsent Ilhom Sadikov badiiy rahbarligida o'tdi. Shuningdek, Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi 3-bosqich talabasi Muhammadaziz Dilmurodov rejissyor sifati ishladi hamda dotsent Bahodir Magdiyev boshlovchilik qildi.

"Ilmli ayol – jamiyat ko'zgusi" mavzusida tadbir tashkil etildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi Rahima Yusupova tomonidan "11-fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni" munosabati bilan "Ilmli ayol – jamiyat ko'zgusi" mavzusida tadbir tashkil etildi.

Tadbirda Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, tibbiyot fanlar nomzodi Lola Abdukadirova, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri Musallam Abdujabbarova, Xalq ijodiyoti fakulteti Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi Abdullayeva Hafiza Olimxo'jayevna, "Ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi uslubchisi Nigora Boynazarovalar ishtirok etdilar.

Ilmli ayol jamiyatning ko'zgusi bo'lib, uning rivojlanish darajasini, ma'naviy boyligini va taraqqiyot yo'nalishini aks ettiradi. Ilmli ayol jamiyatda o'z o'rnini topishga, o'z fikrini erkin ifoda etishga, ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishga va o'z qobiliyatlarini namoyon etishga qodir. Uning bilimlari va tajribalari jamiyatning taraqqiyotiga, bolalarning tarbiyasiga, oila va jamiyatning mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmli ayol jamiyatda o'ziga xos rol o'ynab, boshqalarga o'rnak bo'ladi. Uning bilimlari va ma'naviy boyligi boshqalarga ilhom baxsh etadi, ularni o'z ustida ishslashga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga va jamiyatga foyda keltirishga undaydi. Ilmli ayol jamiyatning kelajagi uchun muhim omil bo'lib, u o'z bilimlari va tajribalari bilan jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Tadbirda ayni shu jihatlar alohida ta'kidlandi. Shuningdek, ishtirokchilarni qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha javob berildi.

Nodirbek Sayfullayev rahbarligida Dramatik teatr va kino san'ati kafedrasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida Dramatik teatr va kino san'ati kafedrasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda tegishli mutasaddilar ishtirok etdi.

Ma'lumki, institutda 2024-yil davomida kafedralar tomonidan amalga oshirilgan ishlar reyting indikatorlari bo'yicha tahlil qilingan hamda uning natijalariga ko'ra mazkur kafedra eng oxirgi o'rinda qayd etilgan edi.

Nodirbek Sayfullayev kafedra 1945-yil Teatr san'ati instituti tashkil topgan kundan boshlab faoliyat ko'rsatayotgani, u

institutning birinchi va eng nufuzli kafedrasi bo'lganini, bugungi kunda esa faoliyati qoniqarli darajada emasligini aytib, kafedraning faoliyatini takomillashtirish, yana avvalgi darajaga olib chiqish zarurligini, buning uchun kafedra jamoasi bir maqsad yo'lida birlashishi, mehnat qilishi va salohiyatini yuzaga chiqarishi kerakligini qayd etdi.

Shuningdek, kelgusida kafedra tomonidan tarixiy qahramonlar hayoti hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqimiz hayotiga ta'siri aks etgan spektakllar sahnalashtirilishi, uni katta sahanalarda namoyish etish lozimligi qayd etildi.

Kafedra a'zolari ham so'zga chiqib, 2025-yil 3-yanvar kuni rektor boshchiligidagi 2024-yil yakunlari hamda 2025-yilda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha amalga oshirilishi rejallashtirilgan vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda belgilangan rejalarни amalga oshirish bo'yicha ishlar olib borilayotgani, shuningdek, o'tgan yildagi reytingda kafedraning qoniqarsiz natijasidan barcha tegishli xulosa chiqarganini aytib o'tishdi.

Yig'ilish davomida kafedraning kelgusi rejalarini, xalqaro aloqalarini kengaytirish, salohiyatni oshirish, talabalar amaliyotini takomillashtirish va boshqa masalalar ham atroficha muhokama qilindi.

Rektor soha rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan har qanday taklif va fikrlarni tinglashga va ularni institut imkoniyati va vakolati doirasida amaliyotga tadbiq etishga tayyorligini bildirdi.

Yig'ilish so'ngida tashkiliy masala ko'rib chiqildi hamda institut rektorining tegishli buyrug'iga ko'ra Axmedova Zamfira Amirovna Dramatik teatr va kino san'ati kafedrasining mudiri vazifasini bajaruvchi etib tayinlangani ma'lum qilindi.

O'zbekiston xalq shoiri, professor Usmon Azim bilan uchrashuv tashkil etildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi tomonidan O'zbekiston xalq shoiri, professor Usmon Azim bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuv Alisher Navoiy asarlari va ularni anglash mavzusida bo'lib o'tdi. Unda Alisher Navoiy ijodi va tafakkurini anglash – bu nafaqat uning asarlarini o'qish, balki u yashagan davr, maqsadlari va dunyoqarashini ham chuqr tushunish ekanligi ta'kidlandi.

Shuningdek, Navoiy turkiy til imkoniyatlarini kengaytirgan va uni adabiyot tili sifatida yuksaltirgani, uning «Muhokamat ullug'atayn» asari turkiy tilning qudratini isbotlashga bag'ishlangan. Uning she'riyati go'zal tashbehlarga, ramzlarga va chuqr falsafiy ma'noga ega ekanligi va boshqa bir qancha ma'lumotlar berildi.

Suhbat davomida Usmon Azim bugungi o'zbek adabiyoti haqida ham fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.

Bundan tashqari, Usmon Azim o'z ijodidan Alisher Navoiy haqida va uning ijodidan ta'sirlanib yozgan she'rлaridan namunalar ham o'qib berdi.

“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti fanini o’qitish metodikasi” mavzusida amaliy ochiq dars tashkil etildi.

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Xalq ijodiyoti” fakulteti “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasи dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) Saida Avazovna tomonidan Menejment: (Madaniyat va san’at sohasi menejmenti) ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabalari ishtirokida “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti fanini o’qitish metodikasi” mavzusida amaliy ochiq dars tashkil etildi.

Darsda talabalar quyidagi uchta guruhga bo’lingan holda o’zaro bellashdilar:

1. Art managers
2. Teylor
3. Creative Stars

Talabalarning bilim va ko’nikmalari

- 1-Videorolik
 - 2-Mavzu ochilishi
 - 3-Guruh tanishtiruv
 - 4-“Pedagog, talaba, ekspert, savol-javob”
 - 5-“Besh qo’l barobar emas”
 - 6-Kahot
 - 7-Rahbar qobiliyati
 - 8-Gazeta
 - 9-Baraban
- kabi shartlar asosida sinovdan o’tkazildi.

□Qiziqarli tarzda o ’tkazilgan mashg ‘ulot yakuniga ko ’ra

□-o'rinni Teylor jamoasi

□-o'rinni Creative Stars

□-o'rinni Art managers jamoasi qo'lga kiritdi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida navbatdagi yig'ilish bo'lib o'tdi.

✓ Yig'ilishda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari ishtirok etdi.

Yig'ilish kun tartibida talabalarning hafatalik davomati, talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ma'naviyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kafedralarda mavjud to'garaklar faoliyati, 2024/2025-o'quv yili kuzgi semestri bo'yicha professor-o'qituvchilarning HEMIS platformasida o'quv mashg'ulotlarini rasmiylashtirishi hamda fakultet va kafedralarning o'quv-uslubiy, ilmiy-metodik faoliyatlarini o'rganish to'g'risida, 2025-yil uchun rejalarashtirilgan maqsadli investitsiyalar va grant loyihibarini amalga oshirilishi, xalqaro hamkorlik bo'yicha xorijiy universitetlar bilan imzolangan memorandumlar, tuzilgan «Yo'l xarita» larida belgilangan vazifalar ijrosining bajarilishi, to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar tomonidan to'lovlar amalga oshirilish holati, ijro intizomi kabi masalalar muhokama

qilindi.

○○Ushbu masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi hamda barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

“NAVOIYDAN TARALGAN MANGU NAVOLAR” nomli JONLI IJROdagi teatrlashtirilgan konsert dasturi tashkil etildi.

0'zbekiston Kasaba uyushmalari saroyida 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ijodiy jamoasi tomonidan Buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlangan “NAVOIYDAN TARALGAN MANGU NAVOLAR” nomli JONLI IJROdagi teatrlashtirilgan konsert dasturi tashkil etildi.

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayevning bevosita tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur konsert dasturida institut professor-o'qituvchilari va iste'dodli talaba-yoshlari tomonidan Alisher Navoiy g'azallari kuyga solinib, mahorat bilan ijro etildi. Shuningdek, sahna ko'rinishlarida shoirning hayoti hamda asarlaridan parchalar namoyish etildi. Bundan tashqari, dasturdan sevgi-muhabbat va vatanparvarlik ruhidagi kuy va qo'shiqlar hamda she'rlar ham o'rinni oldi.

Konsert so'ngida 0'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining birinchi o'rinosi Bahodir Ahmedov Alisher Navoiy o'zbek adabiyotining eng buyuk shaxslaridan biri ekanligini, uning

ijodi nafaqat adabiyot, balki san'at va madaniyatining ham rivojida beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi hamda konsertning eng muhim jihatni uning ustoz-shogird an'analari asosida tashkil etilgani, sahnada san'at darg'alari va yosh iste'dod egalari bir sahnada turib kuy-qo'shiq va g'azallar ijro etgani, bu esa talabalarining kelgusi ijodida muhim qadam bo'lishini qayd etib, konsert tashkilotchilariga minnatdorchilik bildirdi.

Nodirbek Sayfullayev konsertni tashkil etishdan asosiy maqsad Navoiyni anglash va anglatish, uning hikmatlarini hayotimizga tadbiq etishga hissa qo'shish bo'lsa, yana bir maqsad yoshlarni ustozlari bilan bir sahnaga olib chiqish orqali ularga ijodiy tajriba to'plashlariga, institutda olayotgan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashlariga imkoniyat yaratish ekanligini qayd etib o'tdi hamda bugun ustozlari bilan bir qatorda ilk bor katta sahnaga qadam qo'ygan iste'dodli talabalar, albatta, kelajakda el ardog'idagi san'atkor bo'lib yetishadi deya ishonch bildirdi. Shuningdek, kelgusida bu kabi tadbirlarni yana ko'proq o'tkazishni hamda qamrovini yanada kengaytirish maqsad qilinganini qayd etdi

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti aktyorlik, rejissyorlik, kinoteleoperatorlik, san'atshunoslik, folklor ijrochiligi, milliy qo'shiqchilik, xalq cholg'ulari ijrochiligi, madaniyatshunoslik, kutubxonashunoslik hamda madaniyat va san'at menejmenti ta'lim yo'naliшlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan hisoblanadi.

"Navoiydan taralgan mangu navolar" nomli teatrlashtirilgan konsert dasturi bu so'zlarning yana bir isboti bo'ldi, desak yanglishmaymiz. Zeroki bugun konsertga tashrif buyurgan har bir tomoshabin jonli ijrodagi kuy-qo'shiqlardan estetik zavq olish barobarida, Navoiy ijodining eng nozik qirralarini o'zi uchun kashf eta oldi.

Kollegial Organning 2025-yildagi 1-sonli yig'ilishi bo'lib o'tdi.

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Kollegial Organning 2025-yildagi 1-sonli yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda 2025-yil 1-chorak uchun qabul qilingan tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarning 3 yillik shaxsiy rejasi va nazariy-metodologik dasturini tasdiqlash masalasi muhokama qilindi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, 0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lidan keyingi ta'lim to'g'risida"gi Nizomning 28-bandiga ko'ra doktorant ilmiy rahbar bilan birqalikda yakka tartibdagi rejasini ishlab chiqadi. Yakka tartibdagi reja tayanch doktoranturaga yoki doktoranturaga o'qishga qabul qilingandan keyin bir oyda Kollegial organ qarori bilan tasdiqlanadi va Yagona elektron tizimga yuklanadi hamda 29-bandiga ko'ra Ilmiy rahbar doktorant uchun ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur ishlab chiqadi. Nazariy-metodologik dastur tayanch doktoranturaga o'qishga qabul qilingandan boshlab bir oy muddat ichida Kollegial organ tomonidan tasdiqlanadi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, 2025 yilning 1 choragi uchun 12 nafar tayanch doktorant va 13 nafar mustaqil izlanuvchi (PhD/DSc)lar oliy ta'lidan keyingi ta'limga qabul qilindi.

□□ Kollegial organning 1-sonli majlisi qizg'in munozaralarga boy tarzda o'tdi.